



ABITURIYENT – 2020 O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING QARORI

2020/2021 O‘QUV YILIDA

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING OLIY TA‘LIM MUASSASALARIGA
O‘QISHGA QABUL QILISHNING DAVLAT BUYURTMASI PARAMETRLARI TO‘G‘RISIDA

Yoshlarning oliy ta‘lim bilan qamrab olinishini yanada kengaytirish, oliy ta‘lim muassasalari o‘rtasida sog‘lom raqobatni kuchaytirish, karantin sharoitida oliy ta‘lim muassasalariga abituriyentlarning hujjatlarini qabul qilish va kirish imtihonlarini lozim darajada o‘tkazish maqsadida, shuningdek, 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarga muvofiq:

1. Belgilansinki:

a) 2020/2021 o‘quv yilida bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlariga o‘qishga qabul qilishda:

abituriyentlarni ro‘yxatdan o‘tkazish joriy yilning 20-iyunidan 20-iyuligacha qadar (20-iyul kuni ham) bo‘lgan muddatda O‘zbekiston Respublikasiga koronavirusning yangi turi kirib kelishi va tarqalishining oldini olish yuzasidan chora-tadbirlar dasturini tayyorlash bo‘yicha respublika maxsus komissiyasi tomonidan belgilangan hududlarda – Davlat xizmatlari markazlari orqali, barcha hududlarda – Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali hamda O‘zbekiston

Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazining (keyingi o‘rinlarda – Davlat test markazi) rasmiy veb-sayti orqali amalga oshiriladi;

kirish test sinovlari abituriyent tanlagan bakalavriat ta‘lim yo‘nalishiga mos ikkita fandan o‘tkaziladi;

abituriyentlarga test sinovi topshiriladigan fanlar majmuasi hamda fanlar ketma-ketligi bir xil bo‘lgan beshtagacha bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha tanlovda ishtirok etish huquqi beriladi;

b) 2020/2021 o‘quv yili qabulidan boshlab:

O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab quvvatlash vazirligining tavsiyanomasiga ega bo‘lgan xotin-qizlar uchun bakalavriatning kunduzgi ta‘lim shakli bo‘yicha umumiy belgilangan davlat granti asosidagi qabul ko‘rsatkichlariga nisbatan qo‘shimcha to‘rt foizli davlat granti asosidagi qabul ko‘rsatkichlari ajratiladi;

davlat oliy ta‘lim muassasalarining magistratura mutaxassisliklariga o‘qishga kirish, shuningdek, bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlariga o‘qishni ko‘chirish va qayta

tiklash uchun hujjatlarni topshirish jarayoni O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining rasmiy veb-sayti orqali amalga oshiriladi.

2. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi tomonidan manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda:

2020/2021 o‘quv yilida O‘zbekiston Respublikasining Oliy ta‘lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari (keyingi o‘rinlarda – Davlat buyurtmasi parametrlari) ishlab chiqilganligi;

mazmun jihatdan yaqin bo‘lgan bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlari birlashtirilganligi va profil ixtisoslashuv sohalar kengaytirilganligi;

magistratura mutaxassisliklari yiriklashtirilganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

3. Davlat buyurtmasi parametrlari:

a) bakalavrlar tayyorlash bo‘yicha:

kunduzgi ta‘lim shakliga – 103 575 nafar etib 1-ilovaga;

sirtqi ta‘lim shakliga – 31 350 nafar etib 2-ilovaga;

kechki ta'lim shakliga – 5 025 nafar etib3-ilovaga;

b) **magistrlar** tayyorlash bo'yicha – **10 425 nafar** etib 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. **2020/2021 o'quv yilida O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish bo'yicha davlat komissiyasi** (keyingi o'rinlarda – Davlat komissiyasi) tarkibi 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Davlat komissiyasiga quyidagi huquqlar berilsin:

zarurat bo'lganda, yangi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarini kiritish hamda tashkil etiladigan yangi oliy ta'lim muassasalari qabul parametrlarini belgilash uchun Davlat buyurtmasi parametrlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish;

iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarning, shu jumladan respublikaning olis va borish qiyin bo'lgan tumanlarining mutaxassislariga bo'lgan ehtiyojini qanoatlantirish uchun oliy ta'limmuassasalarining bakalavriat va magistraturasiga tegishli tarmoqlar va hududlar bo'yicha maqsadli qabul parametrlarini belgilash;

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda tizimida oliy ta'lim muassasalari bo'lgan vazirlik va idoralarning takliflari asosida oliy ta'lim muassasalarining nufuzi va hududiy joylashuvini hisobga olgan holda bazaviy to'lov-kontrakt qiymatidan kelib chiqib tabaqalashtirilgan to'lov-kontrakt minimal miqdorining yagona ko'rsatkichlarini ta'lim sohalari va respublika hududlari bo'yicha belgilash(o'zini o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tayotgan oliy ta'lim muassasalari bundan mustasno);

professional ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning

davlat buyurtmasi parametrlarini tasdiqlash.

5. **Farg'ona viloyatining So'x tumanini** ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, istiqbolda mazkur hududning iqtisodiyot tarmoqlarini zamonaviy fikrlaydigan malakali mutaxassislar bilan ta'minlash maqsadida ushbu tuman uchun **bakalavriatning kunduzgi ta'lim shakli bo'yicha umumiy belgilangan qabul ko'rsatkichlariga nisbatan qo'shimcha davlat granti asosidagi 500 ta o'rin miqdoridagi maqsadli qabul parametrlari ajratilsin.**

Farg'ona viloyati hokimligi O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan birgalikda mazkur qabul parametrlarini ehtiyojga muvofiq oliy ta'lim muassasalari kesimida taqsimlash bo'yicha asoslangan takliflarni bir hafta muddatda Davlat komissiyasiga kiritilsin.

6. O'zini o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tgan oliy ta'lim muassasalariga o'zini o'zi to'liq moliyaviy ta'minlash miqdoridan kelib chiqib, **to'lov-kontrakt asosida o'qitish qiymatini belgilash huquqi** berilganligi ma'lumot uchun qabul qilsin.

O'zini o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tgan oliy ta'lim muassasalari rektorlari bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha belgilangan **to'lov-kontrakt miqdori haqidagi ma'lumotlarni bir hafta muddatda ommaviy axborot vositalari va Internet tarmog'ida e'lon qilsin.**

7. Belgilab qo'yilsinki, **2021/2022 o'quv yilidan boshlab** kadrlar buyurtmachilarining ehtiyojlari to'liq avtomatlashtirilgan tarzda **“quota.mineconomy.uz” axborot tizimi** (keyingi

o'rinlarda – Axborot tizimi) orqali shakllantiriladi.

8. Buyurtmachilarining kadrlarga bo'lgan ehtiyojini aniqlash joriy rayonini raqamlashtirish maqsadida **2020-yil 1-oktyabrga** qadar:

O'zbekiston Respublikasi Bandalik va mehnat munosabatlari va zirligi iqtisodiyot tarmoqlarining oliy ma'lumotli kadrlarga bo'lgan joriy ehtiyojini kuzatib borish imkoniyatini yaratish uchun“Yagona milliy mehnat tizimi” idoralararo dasturiy-apparat kompleksini Axborot tizimi bilan integratsiyasini;

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi respublikaning barcha maktablarida bitiruvchi sinflardagi o'quvchilar soni hamda pedagogik tarkibi to'g'risida doimiy yangilanib boruvchi ma'lumotlar bazasini Axborot tizimi bilan integratsiyasini;

O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi bilan birgalikda kadrlar buyurtmachilari ehtiyojlari to'g'risidagi ma'lumotlarni “Elektron raqamli imzo” tizimini qo'llagan holda Axborot tizimiga kiritilishini hamda Axborot tizimini muntazam ravishda takomillashtirib borilishini ta'minlasin.

9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi va Xalq ta'limi vazirligi boshqa vazirlik va idoralar bilan birgalikda **2020-yil 1-sentyabrga** qadar **umum ta'lim muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi hamda oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarini unifikatsiya qilish va yagona imtihonni yo'lga qo'yish** bo'yicha takliflarni ishlab chiqsin va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga kiritilsin.

10. Davlat komissiyasi **2020-yil 20-iyunga** qadar:

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi, Xalq ta’limi vazirligi, Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo‘mitasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari buyurtmalariga binoan sog‘liqni saqlash, xalq ta’limi, veterinariya sohalarida oliy ma’lumotli kadrlarga ehtiyoj yuqori bo‘lgan hududlar uchun Davlat buyurtmasi parametrlarining davlat granti asosidagi qabul ko‘rsatkichlari doirasida **maqsadli qabul parametrlarining tuman (shahar)lar kesimidagi taqsimotini;**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, tizimida oliy ta’lim muassasalari bo‘lgan vazirlik va idoralar hamda Davlat test markazining takliflari asosida oliy ta’lim muassasalariga **Davlat buyurtmasi parametrlarining ta’lim tillariga qarab taqsimotini tasdiqlasin.**

11. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi:

a) **bir oy** muddatda:

O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi hamda Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi bilan birgalikda 2020/2021 o‘quv yilida yangi kiritilayotgan bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari hamda magistratura mutaxassisliklarini hisobga olgan holda Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatoriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin;

tizimida oliy ta’lim muassasalari bo‘lgan vazirlik va idoralar bilan birgalikda yangi kiritilayotgan bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining malakaviy talablari, o‘quv re-

jalari hamda fan dasturlarini ishlab chiqsin va belgilangan tartibda tasdiqlasin;

b) **2020-yil 31-dekabrga** qadar bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari xususiyatidan kelib chiqqan holda bitiruvchilarga asosiy hamda qo‘shimcha kvalifikatsiya berish tartibini ishlab chiqsin va tasdiqlasin;

v) O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va qambag‘allikni qisqartirish vazirligi, Moliya vazirligi hamda tizimida oliy ta’lim muassasalari bo‘lgan vazirlik va idoralar bilan birgalikda **2020-yil 1-dekabrga qadar** quyidagilar to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasiga asoslantirilgan takliflar kiritilsin:

oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlarida **faqat davlat granti asosidagi qabul ko‘rsatkichlarini belgilash;**

to‘lov-kontrakt asosidagi qabul ko‘rsatkichlarini **oliy ta’lim muassasalari tomonidan mustaqil belgilash.** Bunda, to‘lov-kontrakt asosidagi qabul ko‘rsatkichlari O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan belgilangan miqdordan kam bo‘lmashligi lozim;

iqtidorli talabalarni nodavlat oliy ta’lim tashkilotlarida hamdavlat granti asosida o‘qitish;

alohida iqtidor talab etiladigan ta’lim sohalarining bakalavriat ta’lim yo‘nalishlariga o‘qishga qabul qilish uchun kasbiy (ijodiy) imtihonlar bilan birgalikda **majburiy uchta – ona tili (o‘zbek, rus yoki qoraqalpoq tili), matematika va O‘zbekiston tarixi fanlari bo‘yicha test sinovlari topshirish** tartibini joriy qilish.

12. Sport sohasida oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash jarayonini optimallashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi

Jismoniy tarbiya va sport vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi hamda Vazirlar Mahkamasini huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiya-ning **“Sport faoliyati (faoliyat turlari bo‘yicha)” bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha o‘qish muddati 3 yil bo‘lgan ta’lim dasturlari doirasida kadrlar tayyorlashni amalga oshirish** to‘g‘risidagi taklifga rozilik berilsin.

13. Belgilab qo‘yilsinki:

2020/2021 o‘quv yilidan boshlab **“130 000–Matematika”** ta’lim sohasi bo‘yicha magistratura mutaxassisliklari uchun **Davlat buyurtmasi parametrlari to‘liq davlat granti asosida shakllantiriladi;**

2020/2021 o‘quv yilidavlat granti asosida bakalavriat va magistraturaga o‘qishga qabul qilingan shaxslarni o‘qitish bilan bog‘liq xarajatlar O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag‘lari hisobiga amalga oshiriladi.

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim qarorlariga 6-ilovaga muvofiq o‘zgartirishlar kiritilsin.

15. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi Adliya vazirligi hamda boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda qonun hujjatlariga mazkur qarordan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritilsin.

16. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisi A.A. Abduvaxitov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev

*Toshkent shahri,
2020-yil 12 iyun*

TALABALIK BAXTI NASIB ETSIN!

B. T. DAMINOV,
ToshPTI rektori,
Xalq deputatlari Toshkent
shahar kengashi deputati

Bugungi kunda institutimiz ostonasidan bosib, talaba bo'lish uchun shaylanayotgan qadrlı yoshlar, aziz abituriyentlar!

Siz, aziz o'g'il-qizlarimni, sizlarning timsolingizda O'zbekiston tibbiyotining kelajagi, istiqboli ufqlarini ko'rishimiz mumkin deyman. Va bu oddiy gapgina emas. Siz tibbiyot va uning eng mas'uliyatli sohasi bo'lmish pediatriya sohasini tanlagan ekansiz, insonlar salomatligining posboni bo'lish naqadar sharafli va shu bilan birga mas'uliyatli ekanligini his qilmoqdasiz degan umiddaman. Bu kasb uchun tunu kun bilim olish, izlanish va dunyo tibbiyoti yangiliklaridan mudom xabardor bo'lish kerak. Ayniqsa, bugungi pandemiya sharoitida tibbiyot sohasining naqadar dolzarbligini, bu sohada bilimli, fidoyi va raqobatbardosh kadrlar nechog'li zarurligiga o'zingiz guvoh bo'ldingiz. Va ayni shu ezgu maqsad sizlarni institutimizga yetaklab kelganiga aslo shubham yo'q.

Bu yilgi qabul boshqa yillardan o'zgacha bo'lishiga ham ma'lum jihatdan shu pandemiya sabab. Bu haqda muhtaram Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyevning "2020-2021 o'quv yilida O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qa bul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risidagi qarorida, jumladan, yoshlarning oliy ta'lim bilan qamrab olinishini yanada kengaytirish, oliy ta'lim muassasalari o'rtasida sog'lom raqobatni kuchaytirish, karantin sharoitida oliy ta'lim muassasalariga abituriyentlarning hujjatlarini qabul qilish va kirish imtihonlarini lozim darajada o'tkazish maqsadida, shuningdek 2017-2021 yillarda

O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarga muvofiq o'tkazilishi belgilangan.

Ushbu vazifalar yurtimizdagi yoshlarni oliy ta'limga ega bo'lishlari, yurt haqiqiy raqobatbardosh kadrlarga ega bo'lish yo'lidagi qadamlardir.

O'ylaymanki, institutimizga hujjat topshirgan har bir abituriyent yurtimizda yoshlarga berilayotgan imkoniyat va imtiyozlardan o'rinli foydalangan holda o'z bilim va iqtidorini yanada kengroq namoyon qiladi.

Axir, yoshlik inson umrining go'zal va beg'ubor fasli, ulkan orzu-umidlar, beqiyos imkoniyatlar davri. Yurtimizda keyingi paytda yoshlar bilan ishlash bo'yicha mutlaqo yangi tizim asosida ish olib borilayotgani, talaba-yoshlarimizning ijtimoiy faolligi, institut hayotida munosib hissa qo'shib ishtirok etayotganini barchamiz minnatdorlik bilan e'tirof etamiz.

Shu asosda yosh avlodning fuqarolik pozitsiyasi va faolligini kuchaytirish, uni mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini puxta egallab, xalqaro maydonda raqobatga kirisha oladigan barkamol shaxslar etib tarbiyalash bo'yicha sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda.

2019-2020 o'quv yili davomida institutimiz yoshlari bir qancha tanlovlarda ham yutuqlarga erishdilar, jumladan, fan olimpiadalari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nomli va Davlat stipendiyalar, "Zulfiya" Davlat mukofoti, turli xalqaro anjumanlar, olimpiadalar va tanlovlar hamda sport musobaqalarida g'oliblik va faxrli o'rinlarni qo'lga kiritdilar.

O'ylaymanki, siz aziz abituriyentlarga talabalik baxti nasib qilgach ana shunday iqtidorli, bilimga tashna talabalarimizga aylanasiz.

Institutimizning ahil jamoasi va har bir fidoyi professor-o'qituvchisi yurtimizning va davlatimizning

ta'limga bo'lgan e'tiborga oid barcha hujjatlarda aks etgan vazifalarni hayotga izchil tatbiq etish uchun mehnat qilmoqda. Albatta, jahon andozalariga mos mutaxassislar tayyorlashga qaratilgan barcha talablarni amalga oshirishda har birimizning alohida o'rnimiz bor.

Professor-o'qituvchilar va institutimiz xodimlarining bu mehnatlari sizlarning – bo'lajak talabalarimizning jahon miqyosida raqobatbardosh, o'z eliga sodiq va fidoyi kadrlar bo'lib yetishishingizda katta ahamiyat kasb etadi.

Axir bugungi kunda mamlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilish, uni innovatsion asosda rivojlantirish, o'z oldimizga qo'ygani ko'p qirrali va murakkab vazifalarni amalga oshirish uchun jamiyatimizga zamonaviy va kreativ fikrlaydigan, har qanday vaziyatda ham ma'suliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan, g'ayrat-shijoatli, intellektual salohiyati yuksak, vatanparvar yosh kadrlar suv va havodek zarur.

Siz, jondan aziz o'g'il-qizlarimizdan faqat bitta iltimosimiz, yagona tilagimiz bor: ota-onalaringiz, uztov-murabbiylaringiz, xalqimizning sizlardan kutayotgan orzu-umidlarini amaliy ishlar bilan ro'yobga chiqarish yo'lida hormang, charchamang!

O'z maqsadlaringiz sari qo'rqmasdan qadam tashlang! Ishonaman, siz albatta maqsadingizga erishasiz!

O'qish-o'rganish, doimiy izlanish, ilm-fanga, taraqqiyot cho'qqilarini egallashga intilib yashash doimo hamrohingiz bo'lsin!

Men sizlarnig har biringizga el-yurtimiz faxrlanadigan, jonajon O'zbekistonimizning munosib farzandi, haqiqiy inson bo'lish baxti nasib etishini hamda kuch-g'ayrat va shijoat sizlarni hech qachon tark etmasligini tilayman.

Hamisha sog'-omon bo'ling, talabalik sharafi sizga nasib etsin!

BU YILGI QABUL HAQIDA

Bu yilgi qabul haqida institutimiz qabul komissiyasining mas'ul kotibi Maxamatjon Koshmetovich Nishanatevga bir necha savollar bilan murojaat qildik.

Hurmatli Maxamatjon Koshmetovich! Bu yilgi qanchadan-qancha abituriyentlar uchun hayajonli bo'lgan qabulning o'ziga xos xususiyatlari haqida so'zlab bersangiz.

– 2020/2021 o'quv yili uchun qabul O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risidagi 2020 yil 12 iyundagi PQ-4749 Qaroriga asosan olib borilmoqda. 2020/2021 o'quv yilida O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalariga davlat buyurtmasi asosida o'qishga qabul qilish parametrlari bakalavrlar tayyorlash bo'yicha kunduzgi ta'lim shakliga – 103 575 nafar etib 1-ilovaga muvofiq; sirtqi ta'lim shakliga – 31 350 nafar etib 2-ilovaga muvofiq; kechki ta'lim shakliga – 5 025 nafar etib 3-ilovaga muvofiq belgilangan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, Madaniyat vazirligi, Qishloq xo'jaligi vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari buyurtmalariga binoan 2020-2021 o'quv yilida sog'liqni saqlash, madaniyat va qishloq xo'jaligi sohalarida oliy ma'lumotli kadrlarga ehtiyoj yuqori bo'lgan hududlar uchun ushbu qarorning 1-ilovasiga muvofiq tasdiqlangan davlat buyurtmasi parametrlarining davlat granti asosidagi qabul ko'rsatkichlari doirasida maqsadli qabul parametrlari 5-ilovaga muvofik tasdiqlanishi belgilangan.

– Hurmatli Maxamatjon Koshmetovich, ushbu o'quv yilida ta'lim yo'nalishlarining kunduzgi, sirtqi va kechki shakllarida O'zbekiston Respublikasi Qurolli

kuchlari safida muddatli harbiy xizmatni o'tab kelgan abituriyentlar uchun grantlar doirasidagi maqsadli qabul qaysi parametrlarda tasdiqlangan?

– 2020-2021 o'quv yili uchun O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari safida muddatli harbiy xizmatni o'tab, harbiy qism qo'mondonligining tavsiyanomalariga ega bo'lganlar uchun bakalavriatning kunduzgi ta'lim shakli bo'yicha alohida besh foizli qabul ko'rsatkichlari 19-ilovaga muvofiq, 2020-2021 o'quv yili uchun O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari sifatida muddatli harbiy xizmatni o'tab, harbiy qism qo'mondonligining tavsiyanomalariga ega bo'lganlar uchun bakalavriatning sirtqi ta'lim shakli bo'yicha alohida besh foizli qabul ko'rsatkichlari 20-ilovaga muvofiq va 2020-2021 o'quv yili uchun O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari sifatida muddatli harbiy xizmatni o'tab, harbiy qism qo'mondonligining tavsiyanomalariga ega bo'lganlar uchun bakalavriatning kechki ta'lim shakli bo'yicha alohida besh foizli qabul ko'rsatkichlari 21-ilovaga muvofiq tasdiqlanishi belgilangan.

– Maxamatjon Koshmetovich, bu yilgi qabulning yangiliklari haqida so'zlasangiz.

– Yangiliklar quyidagilar: Koronavirus infeksiyasi bilan bog'liq pandemiya sharoitida 2020-2021 o'quv yili qabulida abituriyentlarga qilyayliklar yaratish maqsadida oliy ta'lim muassasalariga kirish sinovlarida ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tish jarayoni onlayn tarzda.

Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali va Davlat test markazining veb-sayti orqali amalga oshirish ko'zda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10-apreldagi “O'zbekiston Respublikasida xalq tabobatini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar” xaqida-

gi PQ-4668 – son qaroriga asosan Toshkent pediatriya tibbiyot institutida 5511100 - Xalq tabobati yangi ta'lim yo'nalishi tashkil etildi. O'qish shakli – kunduzgi; o'qish muddati – 4 yil; maqsadi - xalq tabobatining asosiy yo'nalishlarini rivojlantirish, aholining sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash va zamonaviy tibbiyotda ularni qo'llash.

Respublika oliy ta'lim muassasalari bakalavriatining kunduzgi ta'lim shakli bo'yicha umumiy belgilangan davlat granti asosidagi qabul ko'rsatkichlariga nisbatan xotin-qizlar uchun to'rt foizli qo'shimcha davlat granti asosidagi qabul ko'rsatkichlarining hududlar kesimidagi taqsimoti 22-ilovaga muvofiq tasdiqlangan.

Koronavirus pandemiyasiga qarshi kurashish talablariga muvofiq 2020-2021 o'quv yili qabulida respublika oliy ta'lim muassasalari bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga kirish test sinovlari ikkita fandan o'tkazilishi; 1-fan uchun test topshiriqlari soni 30 ta, baholash mezonlari har bir test savoliga 3,2 balldan bo'lib maksimal – 96 ball; 2-fan uchun test topshiriqlari soni 30 ta, baholash mezonlari har bir test savoliga 3,1 balldan bo'lib maksimal – 93 ball, ikki fanni 60 ta test savoliga jami maksimal – 189 ball belgilandi.

Nomzodlarga oliy harbiy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish bo'yicha ro'yxatdan o'tishda ularga test topshiradigan fanlari majmuasi va ketma-ketligi bir xil bo'lgan harbiy bo'lmagan oliy ta'lim muassasalarining beshtagacha bakalavriat ta'lim yo'nalishlarini tanlash huquqi berildi.

– Institutimizga hujjat topshirayotgan abituriyentlarga tilaklarinigiz.

– Institutimiz rahbariyati va qabul komissiyasi barcha abituriyentlarga oldilaridagi turgan sinovlarda omad tilab qoladi.



TIBBIY-PEDAGOGIKA VA DAVOLASH ISHI FAKULTETI

Tibbiy-pedagogika va davolash ishi fakultetida Kasb ta'limi – Tibbiy pedagogika ishi hamda Davolash ishi ta'lim yo'nalishlari bo'yicha tibbiyot hamda ijtimoiy sohalarga yuqori malakali raqobatbardosh, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi shifokor kadrlarni tayyorlashda oliy ta'limning asosiy va kasbga oid qo'shimcha ta'lim dasturlarini, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Qonunlariga mos ravishda o'quv-uslubiy, ilmiy hamda boshqa ta'lim faoliyatlari amalga oshiriladi. Kasb ta'limi – Tibbiy-pedagogika ishi ta'lim yo'nalishi 1998 yilda tashkil etilgan. Ta'limning kunduzgi shaklida o'qish 6 yil. Ixtisosi umumiy amaliyot shifokor-pedagog, davolash ishi o'qituvchisi. Umumiy amaliyot shifokor-pedagog quyidagi shartlar bilan tayyorlanishi lozim:

Oliy ma'lumotli shaxslarga tegishli bo'lgan lavozimlarda ta'lim yo'nalishi bo'yicha mustaqil ish faoliyatini yuritish;

Tanlangan mutaxassislik bo'yicha magistraturada oliy ta'limni davom ettirishga yo'naltirish;

Malaka oshirish va qayta tayorgarlik tizimida qo'shimcha kasbiy ta'lim olish.

Yo'nalishning sog'liqni saqlash sohasidagi o'rni:

Kasbiy ta'lim (Davolash ishi) sog'liqni saqlash sohasidagi yo'nalish bo'lib, u o'rta oliy o'quv yurti o'qituvchilarini kasbiy tayyorlash uchun qo'llaniladigan psixo-pedagogik vosita-

lar, usullar shuningdek bolalar va katta yoshdagi aholi sog'lig'ini muhofaza qilish va mustahkamlash, kasalliklarning oldini olish, davolash, inson hayotini uzaytirishga qaratilgan turli vositalar, bilimlar, usullarni o'zida jamlaydi.

Ma'muriy davolash, ilmiy va pedagogik faoliyati:

Kasbiy ta'lim, davolash ishi bo'yicha mutaxassis, davolash ishi o'qituvchisi, umumiy amaliyot shifokori, fundamental, umumiy kasbiy va maxsus tayyorgarlikka muvofiq tibbiyot kollejlari O'z RSSV uslubiy kabinetlarida, o'rta maxsus va oliy o'quv muassasalarida oliy ma'lumotli mutaxassisga mo'ljallangan o'rinlarida ishlash. Umumiy amaliyot shifokori davlat muassasalaridan (qishloq va shahar shifokorlar punktlarida, ambulatoriya-poliklinika muassasalarida, qishloq uchastka kasalxonalarida, tez yordam xizmatlarida, tibbiy sanitariya qismlarida, shifokorlik sog'lomlashtirish punktlarida, sanatoriy-profilaktoriylarda, dam olish uylarida) nodavlat tibbiyot muassasalarida, xususiy yakka tartibda ishlashi mumkin.

Davolash ishi ta'lim yo'nalishiga qabul 2010 yildan boshlab amalga oshirilib kelinmoqda. Mazkur yo'nalishning sog'liqni saqlash sohasidagi o'rni quyidagicha:

Ushbu ta'lim yo'nalishi tibbiyot sohasini rivojlantirishga, istiqbolini belgilashga, kasbiy ko'nikmaga mutasaddilik qobiliyatiga yo'naltirilgan

inson salomatligini saqlash faoliyati vositalari, usullar va uslublarining majmuasini o'z ichiga oladi.

Umumiy amaliyot shifokori oliy va o'rta maxsus tibbiyot muassasalarida, davlat muassasalarida (qishloq va shahar tibbiyot punktlarida, ambulator-poliklinik muassasalarida, tez tibbiy va shoshilinch tibbiy yordam xizmatlarida), nodavlat tibbiyot muassasalarida, xususiy yakka tartibda ishlashi mumkin.

Ushbu yo'nalishning kasbiy faoliyat turlariga tibbiy-profilaktik, tez va shoshilinch tibbiy yordam, davolash-tashxislash, reabilitatsiya, tibbiy-ijtimoiy yordam, ilmiy-tadqiqot va uslubiy ishlarni tashkillashtirish kiradi. Fakultet talabarlari institutning amaldagi nizomiga binoan: zamon darajasida rivojlangan fan, texnika va madaniy bilimlarni egallash; oliy o'quv yurti faoliyatiga oid muhim masalalarni hal qilish va muhokamasida, shu jumladan jamoat tashkilotlari orqali oliy o'quv yurtlarining boshqaruv organlari ishlarida qatnashish; kutubxona, axborot jamg'armasi, oliy o'quv yurti o'quv, ilmiy, davolash va boshqa bo'linmalarining xizmat turlaridan bepul foydalanish: ilmiy-tadqiqot ishlarida, konferensiya va simpoziumlarda qatnashish, o'z ishlarini oliy o'quv yurtining nashrlariga taqdim etish; O'zbekiston Respublikasi Qonunlariga zid bo'lmagan oliy o'quv yurti talabasiga berilgan boshqa huquqlardan foydalanish imkoniyatiga egadirlar.

XALQARO FAKULTET

Xalqaro hamkorlik asosida amalga oshirilayotgan ishlar hamda xalqaro fakultetlarning tashkil etilishi bo'yicha Toshkent pediatriya tibbiyot institutining Xalqaro hamkorligi doirasida 68 xorijiy tibbiy ta'lim va ilmiy muassasalar bilan hamkorlikda 12 yo'nalish bo'yicha ishlar amalga oshirilmoqda. Shular jumlasidan institut professor-o'qituvchilarining chet elda bir oylik malaka oshirish kurslarida ishtirok etishlarini hamda chet

ellik mutaxassislarni ToshPTIda ilmiy-amaliy va ta'lim berishlari yo'lga qo'yilgan. 2019-2020 o'quv yilidan boshlab institutda Rossiya Federatsiyasining Sankt-Peterburg Davlat pediatriya tibbiyot universiteti bilan 2018 yil 18 oktyabr kuni O'zbekiston-Rossiya ta'lim forumi doirasida imzolangan shartnomaga asosan hamkorlikda Xalqaro fakultet tashkil etildi va uning tarkibida "Pediatriya ishi" va "Davolash ishi" ta'lim yo'nalishlari bo'yicha talabalarni o'qitish amal-

ga oshirilmoqda. Ushbu 2020-2021 o'quv yilidan boshlab "Stomatologiya" ta'lim yo'nalishi bo'yicha qo'shma bakalavriat dasturi asosida talabalarni qabul qilish rejalashtirilgan. Oliy ta'limdan keyingi magistraturaning "Sog'liqni saqlashni tashkillashtirish" mutaxassisligi va klinik ordinaturaning "Neonatologiya", "Bolalar jarrohligi", "Nevrologiya" va "Otorinolaringologiya" mutaxassisliklari bo'yicha qo'shma ta'lim dasturlari asosida qabul amalga oshiriladi.



Institut bilan tengdosh «Pediatriya» fakulteti boy tarix va anʼanalarga ega. Uning bitiruvchilari Oʻzbekiston Respublikasi Sogʻliqni saqlash tizimining turli boʻgʻinlarida faoliyat koʻrsatadilar. Bu fakultet xalqaro nufuzga ega boʻlgan yirik olimlar, mohir tibbiyotchilar: pediatr, neonatolog, bolalar jarrohlari, oftalmolog, travmatolog-ortoped, otolaringologlarni yetishtirib berdi.

Mazkur fakultet institut tashkil etilgandan beri mavjud. «Pediatriya ishi» yoʻnalishi taʼlimning kunduzgi shaklida oʻqish muddati 6 yil. Ixtisosligi: shifokor-umumiy pediatr. Shifokor umumiy pediatr taʼlim yoʻnalishi boʻyicha oliy maʼlumotga ega boʻlgan shaxslar tomonidan boʻsh oʻrinlarni egallash mumkin boʻlgan lavozimlarda ishlash uchun davlat muassasalarida (qishloq, shahar shifokorlik punktlarida, ambulator-poliklinik muassasalarida, tez va shoshilinch yordam xizmatlarida, statsionarning maxsuslashtirilmagan bolalar boʻlimlarida, maktabgacha va maktab qoshidagi bolalar muassasalarida, bolalar profilaktoriylari va dam olish uylarida), nodavlat tibbiy muassasalarida shaxsiy va individual tartibdagi faoliyat uchun tayyor boʻlishlari kerak.

Shu bilan birgalikda shifokor-umumiy pediatr bakalavriat yoʻnalishining chegarasida



PEDIATRIYA FAKULTETI

tanlangan mutaxassislik boʻyicha oliy taʼlimni davom ettirishga, qayta tayyorlash va malakani oshirish tizimida qoʻshimcha kasbiy taʼlim olishga ham tayyor boʻlishi lozim.

Ish faoliyati: Oliy oʻquv muassasalarida oliy maʼlumotli mutaxassisga moʻljallangan oʻrinlarda ishlash. Umumiy pediatr shifokor davlat muassasalarida qishloq uchastka kasalxonalarida, tez yordam xizmatlarida, tibbiy-sanitariya qismlarida, shifokorlik sogʻlomlashtirish punktlarida, sanatoriy-profilaktoriylarda, dam olish uylarida) nodavlat tibbiy muassasalarida xususiy yakka tartibda ishlashlari mumkin.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi «Oliy taʼlim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida»gi PQ 2909 sonli qarori asosida institutimizda tibbiy-biologiya ishi taʼlim yoʻnalishi ochildi. Ushbu yoʻnalishda ochilgan guruh talabalari 2-Pediatriya fakultetida tahsil olishmoqda.

Taʼlimning kunduzgi shaklida oʻqish muddati 4 yil boʻlib, Tibbiy-biologiya ishi taʼlim yoʻnalishi boʻyicha bakalavrlarning ilmiy-pedagogik, ilmiy-tadqiqot, tibbiy tashxislash, tibbiy-ijtimoiy, tashkiliy boshqaruv, kasbiy faoliyat turlari mavjud.

Shuningdek, pedagogik qayta tayyorlov oʻtgandan soʻng oʻrta-maxsus taʼlim muassasalarida maxsus fanlarni oʻqitishi mumkin.

Tibbiy-biologiya ishi taʼlim yoʻnalishi boʻyicha bakalavrlarning kasbiy tayyorgarlikdan keyin biologiya (yoʻnalishlar boʻyicha), mikrobiologiya va virusologiya, biotexnologiya, biofizika, tibbiy-biologik apparatlar, tizim va majmualar, morfologiya (yoʻnalishlar boʻyicha), tashxisning instrumental va funksional uslublari (yoʻnalishlar boʻyicha), farmakologiya va yangi yoʻnalishlar boʻlgan molekulyar genetika, biologik tibbiy texnologiyalar, tibbiy biologiya, tibbiy biofizika, tibbiy kibernetika, molekulyar farmakologiya boʻyicha taʼlimni davom ettirishlari mumkin.

«OLIIY HAMSHIRALIK ISHI» BO'LIMI

Oliy ma'lumotli hamshiralar tayyorlash O'zbekiston Respublikasining uzluksiz ta'lim tizimida sog'liqni saqlash tizimiga yuqori malakali, zamonaviy talablarga javob beradigan kadrlar tayyorlab berishdir.

1999-2000 o'quv yilida Prezident Farmoniga asosan «Oliy ma'lumotli hamshira» bo'limi tashkil topgan. U 2002 yildan beri «Oliy hamshiralik ishi» bo'limi deb ataladi. Bu bo'limga tibbiyot kollejlarning bitiruvchilari hamda amaliyotda ishlagan hamshiralar qabul qilinadi.

Bo'limda o'qish muddati 3 yil. Akademik daraja «Bakalavr». Bakalavr esa ta'lim yo'nalishi bo'yicha

oliy ma'lumotli hamshiralar egallashi kerak bo'lgan ish joylarda mustaqil faoliyat ko'rsatishga, bakalavriatning belgilangan yo'nalishi doirasida, tanlangan mutaxassislik bo'yicha tegishli bo'lgan magistraturada oliy ta'limni davom ettirishga, malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimida qo'shimcha kasbiy ta'lim olishga tayyorlangan bo'lishi kerak. Oliy hamshiralik ishi aholi sog'lig'ini saqlash va mustahkamlash, kasallarni parvarish qilish va davolash, odam organizmidagi turli xil kasalliklarning oldini olish va reabilitatsiya qilish uchun foydalaniladigan bilimlar, usullar, amaliy ko'nikmalar jamlamasini qamrab olgan tibbiy

fanlar yo'nalishi. «Oliy hamshiralik ishi» mutaxassisligini olgan shaxslar sog'liqni saqlash muassasalarida bosh hamshira (Hamshiralik ishi menedjeri), davo-profilaktik muassasalari bo'limlarining katta hamshirasi, jarrohlik xonasi katta hamshirasi, jarrohlik bo'limi hamshirasi, anesteziologiya va reanimatsiya bo'limi hamshirasi, doya, tug'ruq bloki doyasi, hamshiralik ishi o'qituvchisi, vrach-statist sifatida faoliyat yuritishlari mumkin.

Oliy ma'lumotli hamshira o'rnatilgan tartibda oliy, o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalarida, hamda malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarida faoliyat ko'rsatishi mumkin.

MAGISTRATURA BO'LIMI HAQIDA

Oliy o'quv yurtining bakalavriat bosqichini yakunlash arafasida turgan barcha talabalarni ta'limning keyingi bosqichi to'g'risidagi ma'lumotlar qiziqtirishi tabiiy. Shu tufayli bugungi sahifamizda magistratura bo'limi haqida ma'lumot bermoqchimiz.

ToshPTI'da magistratura orqali aniq mutaxassislik bo'yicha ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash 2000-2001 o'quv yilidan amalga oshirila boshlangan. Hozirgi paytgacha 1998 nafar magistr tayyorlanib, ular oliy tibbiy ta'lim muassasalarida, ilmiy va ixtisoslashgan markazlarda, ilmiy tekshirish institutlari va sog'liqni saqlash tizimining barcha sohalarida yetuk mutaxassis sifatida faoliyat ko'rsatib kelmoqdalar.

Magistratura aniq mutaxassislik bo'yicha bakalavriat negizida o'qitish muddati Davlat ta'lim standartlarida belgilangan 2 yoki 3 yil davom etuvchi ta'limdir.

Amaldagi Nizomga asosan «Magistr: tanlangan mutaxassisligi bo'yicha ilmiy-tadqiqot, ilmiy-pedagogik va kasbiy faoliyatni mustaqil yuritishga; kasbiy faoliyatda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalan-

ishga; oliy ta'lim muassasasidan keyingi ta'limni magistrlik tayyorgarligiga muvofiq mutaxassislik bo'yicha katta ilmiy xodim izlanuvchilar institutida davom ettirishga; kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimida qo'shimcha kasb ta'limi olishga tayyorlanadi».


Respublikamizda oliy tibbiy ta'lim tibbiy ta'lim bo'yicha Jahon Federatsiyasi hamda Jahon Sog'liqni Saqlash Assotsiatsiyasining tavsifiya va rezolyusiyalarini inobatga olgan holda tashkil etilgan. JSSST va boshqa nufuzli xalqaro tuzilmalar tomonidan ona va bola salomatligi muhofaza qilinishining o'zbek modeli sifatida tan olingan konsepsiyada moddiy-texnik bazani rivojlantirish hamda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish qatorida xalqaro andozalarga mutanosiblikdagi yuqori malakali raqobatbardosh kadrlarning malakaviy salohiyati eng muhim omillardan biri etib belgilangan.

2020-2021 o'quv yilida quyidagi mutaxassisliklarga magistrlar qabuli bo'lib o'tadi: Akusherlik va ginekologiya, endokrinologiya, terapiya (yo'nalishlar bo'yicha), otorinolarin-

gologiya, kardiologiya, oftalmologiya, yuqumli kasalliklar (yo'nalishlar bo'yicha), dermatovenerologiya, nevrologiya, psixiatriya, xirurgiya (yo'nalishlar bo'yicha), tashxisning instrumental va funksional usullari (yo'nalishlar bo'yicha), neyroxirurgiya, Sog'liqni saqlashni boshqarish va jamoat sog'lig'ini saqlash (yo'nalishlar bo'yicha), tibbiy psixologiya, morfologiya (yo'nalishlar bo'yicha), travmatologiya va ortopediya, sud-tibbiyot ekspertizasi, shoshilinch tibbiy yordam, pediatriya (yo'nalishlar bo'yicha), bolalar xirurgiyasi, bolalar anesteziologiyasi va reanimatologiyasi, bolalar kardiologiyasi va revmatologiyasi, bolalar nevrologiyasi, neonatologiya, stomatologiya (bolalar yuz-jag xirurgiyasi), bolalar gastroenterologiyasi, bolalar pulmonologiyasi.

Magistraturaga kiruvchilarga chet tilini bilish talabi hamda mutaxassislik bo'yicha ijodiy qobiliyatni belgilash mezonlari kiritilgan.

Sh.S. Abdullayev,
ToshPTI magistratura
bo'limi boshlig'i

 <p>TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI MEHNAT JAMOASI NASHRI ОРГАН ТРУДОВОГО КОЛЛЕКТИВА ТАШКЕНТСКОГО ПЕДИАТРИЧЕСКОГО МЕДИЦИНСКОГО ИНСТИТУТА</p>	<p>Tahrir kengashi: D.A. Asadov, A.V. Alimov, X.F. Haydarov, M. Ahmedova, A.I. Iskandarov, K. Haitov, D.T. Ashurova A. Valiyev, A.A. Kudayberganov, S.S. Gulyamov, Nashr uchun mas'ul: R. G'ochchiyeva</p>	<p>Bosh muharrir: B.T. DAMINOV Tahrir hay'ati: (ishchi guruh) E.O. Tursunov, K.Sh. Turdiyeva (Bosh muharrir o'rinbosari), A.M. Mannonov, D.A. Ahmedova, S.A. Begmonov, A. Nosirov, Z. Karimova, A. Xudayberdiyev</p>	<p>Gazeta Toshkent shahar matbuot va axborot boshqarmasida 29.12.2006-yil 02-0010-son bilan ro'yxatga olingan.</p> <p>Manzil: 700140, Toshkent-140, Bog'ishamol ko'chasi, 223</p> <p>Cho'lpon nomidagi NMIU texnik va dasturiy vositalari bazasida chop etildi. Manzil: Toshkent, 100129, Navoiy ko'chasi, 30. -buyurtma. Adadi 100 nusxa.</p> <p>Gazeta institut hisobidan nashr etiladi va bepul tarqatiladi.</p>
---	--	--	---